

Prezident qurilish loyihalarini ko'zdan kechirdi



Özbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI

Özbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI





Ozberkiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI



Ozberkiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Farg'ona shahri Tarona ko'chasida qurilgan 16 qavatli yangi uy-joylarni borib ko'rди.

Ma'lumki, Farg'ona mamlakatimizning aholi eng zich joylashgan shaharlardan. Shu bois bu kabi zamonaviy

ko'p qavatli uylar aholining o'sib borayotgan talabini qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, mazkur 2 ta 16 qavatli uyni qurish uchun 11 sotix yer kifoya qildi. Endi bu yerda 160 ta oila yashaydi. Xonadonlarning bir qismi ijtimoiy himoyaga muhtojlarga topshiriladi.

Qurilishda seysmologiya va zamonaviy arxitektura talablariga alohida e'tibor berilgan. Energiya tejovchi, sifatli materiallardan foydalanilgan. Uylarning yonida bolalar o'yin maydonchasi, mashinalar turargohi bor. 420 o'rinali maktab barpo etilgan. 380 o'rinali bolalar bog'chasi qurilmoqda.

Davlatimiz rahbari Farg'ona tumani Ilg'or mahallasiga borib, ichki yo'llarni arzon qurishga oid andozalarni ko'zdan kechirdi.

Yurtimizda 39 ming kilometrga yaqin ichki yo'llar tuproqli. Ilgari qurilgan ko'chalarning ham ko'pi o'ydim-chuqr bo'lib, yaroqsiz holga kelgan. Ushbu barcha yo'llarga asfalt yotqizish juda qimmatga tushadi.

Shu bois qum-shag'al, ohak tosh, chaqiq tosh, sement kabi mahalliy materiallar aralashmasidan 5 xil qoplama varianti tayyorlangan.

Shavkat Mirziyoyev ushbu namunalarni ko'zdan kechirdi. Soha mutaxassislari yo'l qoplamalarining tarkibi, tannarxi, sifati bo'yicha ma'lumot berdi.

Prezident bu ishlanmalarni qo'llab-quvvatlab, ularni muhandislik jihatidan takomillashtirish, xomashyo zaxiralari va zarur texnikalarni aniq hisob-kitob qilib, eng ma'qulini tanlash zarurligini ta'kidladi.

Manba